

КВК 81.10(5 Uzb) 4**M50****УДК 155.7.4.3****Таҳрир хайъати:**

Хамидов О.Х. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент
Дурдиев Д.Қ. – физика-математика фанлари доктори, профессор
Эргашов М.Я. – кимё фанлари номзоди, профессор
Қаҳҳоров О.С. – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Наврўз-зода Б.Н. – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор
Ҳайитов Ш.А. – тарих фанлари доктори, профессор
Ўраева Д.С. – филология фанлари доктори, профессор
Бўриев С. – биология фанлари доктори, профессор
Холиев А. – биология фанлари доктори, профессор
Баротов Ш.Р. – психология фанлари доктори, профессор
Олимов Ш.Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор
Қаҳҳоров С.Қ. – педагогика фанлари доктори, профессор
Мамуров Б.Б. – педагогика фанлари доктори, профессор
Ҳамроев А.Р. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Болтаев Т.Б. – физика-математика фанлари номзоди, доцент

Масъул муҳаррир:

Маматов Д.К. – доцент

Мусаххих:

Салихов Н. – магистратура бўлими услубшуноси

Бухоро давлат университети Илмий кенгаши нашрга тавсия этган.
(2019 йил 28 январдаги мажлисининг 5 – сонли баённомаси)

ISBN 978-9943-3814-6-9

© Бухоро давлат университети

Муқаддима

«Таълим тўғрисидаги» ва «Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси қонунларида кўрсатилган вазифаларни бажариш таълим соҳасида амалга оширилаётган туб ислохотларнинг бош мақсадидир. Айниқса магистрлар тайёрлаш соҳасида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий малакали илмий ва илмий педагог кадрлар тайёрлаш ва аттестациядан ўтказиш тизимини янада такомиллаштириш» тўғрисида», 2012 йил 24 июлдаги ПФ-4456-сон Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимида магистратура фаолиятини янада такомиллаштириш, унинг самарадорлигини ошириш чора – тадбирлари тўғрисида»ги 2007 йил 10 сентябрдаги 190-сон қарорига мувофиқ қатор ишлар амалга оширилмоқда. Шундан келиб чиққан ҳолда магистратура мутахассисликларида таҳсил олаётган талабаларнинг илмий-педагогик фаолиятига катта эътибор берилмоқда.

Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 2 мартдаги 36-сонли қарори билан қабул қилинган “Магистратура тўғрисида”ги Низомда ҳам магистратура талабалари илмий-тадқиқот ишларида қатнашиши, конференциялар ва симпозиумларда иштирок этиши, олиб бораётган тадқиқот ишлари бўйича илмий нашрлар чоп этиши, етакчи хорижий ва республика таълим (илмий) муассасаларда амалиёт ўташи, стажировкада бўлиши ёки магистрлик диссертациясининг тажриба-синов қисмларини бажариш мумкин деб кўрсатилган.

Бу борада Бухоро давлат университетида ҳам қатор ишлар амалга ошириляпти. Кейинги йилларда анъанага айланиб бораётган магистратура мутахассисликлари талабаларининг ҳамда иқтидорли талабаларнинг “Тафаккур ва талқин” илмий мақолалар тўплами шу мақсадда чоп қилинмоқда. Ушбу тўпламда илм-фанда устозларнинг давомчиси, етук ва баркамол мутахассис бўлишга интилаётган магистратура ва иқтидорли талабаларнинг дастлабки илмий қарашлари ўз ифодасини топган.

Ишонамизки, келажакда Президентимиз айтганидек Ватанимиз равнақи ва илм-фан тараққиёти учун хизмат қилишга чоғланаётган ёшлар орасидан ўз илмий қарашларига эга бўлган фидойи олимлар, академиклар етишиб чиқади.

**Бухоро давлат университети ректори,
и.ф.д., доцент О.Х. Хамидов**

5A120302 – Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha)**GELMUT KOL: GERMANIYA BIRLASHUVIDAGI METIN IRODA****Teshayev Azizbek - Bux DU magistranti**

XX asrda dunyo ko'plab buyuk insonlarni ko'rdi. Shunday shaxslar bo'ldiki, ularning kasriga insoniyatning salmoqli qismi qirilib ketdi. Yana shunday insonlar bo'ldiki, o'z ajdodlarining xatosini to'g'irlash va millatning ertangi kuni deb yonib yashadi. Ana shu insonlardan biri, mashhur nemis kansleri, Angela Merkel aytganidek: “Buyuk yevropalik va nemis xalqi birligini taminlagan buyuk inson” Gelmuts Kol edi.

Gelmuts Kol og'ir hayotiy yo'lni bosib o'tdi. U Bovariya moliya boshqarmasi amaldori xonadonida tug'uldi. Uning dunyoqarashi konservativ burjua va katolik diniga etiqod bilan shakllangandi. Gelmuts 1936 yilda Lyudvigsxafen boshlang'ich maktabiga, so'ngra 1910-yil gimnaziya bordi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan uning otasi va katta akasi urushga ketdi. 1944-yilda u shaxar o't o'chirish bosh boshqarmasiga ko'ngilli bo'lib yozildi. Keyin esa o'zi kabi yosh bolalar qatorida Gitleryugen tashkilotiga a'zo bo'ldi. Gelmuts Kollning siyosiy dunyoqarashi 1942-yilda Lyudvigsxafenda bombardimonga uchragan uy ostidan o'z qo'shnisini olib chiqish paytida shakllandi. Ya'niki og'ir ahvolda qolgan insonlarga yordam berish hislati uning hayotiy maslagiga aylandi. Urushdan so'ng u o'qishni davom ettirib 1950-yilda o'qishni tamomladi. Biroq urushdan keyingi og'ir iqtisodiy sharoit paytida u pul topish uchun ko'plab ishlar qildi. Avvaliga quyonxonada, keyin esa ipakchilik korxonasida ishladi. Ishdan so'ng kechki smenada qurulishda yuk tashuvchi va yuk mashinasi xaydovchisi bo'lib ishlashga ham majbur bo'ldi. Biroq u hayotiy maslagidan bir qadam ham orqaga qaytmadi.

Uning siyosiy faoliyati maktab davridagi Xristian demokratik ittifoqi (XDI) ga a'zo bo'lishidan boshlangan. Koll 1946-yilda ona shaxri Lyudvigsxafenda “yoshlar ittifoqi”ning rahbari b'ldi. 1950-yilda u Frankfurt Universitetining yuridik fakultetiga o'qishga kirdi. So'ngra 1951-yilda Geydelberg universitetida o'qidi¹. U yerda tarix va siyosiy fanlardan saboq olgan. Bitirgach Alfred Veber nomidagi institutda ilmiy hodim bo'lib faoliyat yuritdi. 1958-yilda falsafa fanlari bo'yicha doktorlik ishini yo'qladi. Shundan so'ng u Lyudvigsxafendagi litiy zavodida direktor o'rinbosari bo'lib ishladi. 1959-yilda u ximik zavodlar ittifoqining maslahatchisi bo'ldi. Aynan shu davrlardan Gelmuts Kolda tashkilotchilik, boshqaruv va ish yurita olish qobilyatlari yuksala boshlagan. Shu vaqtdan boshlab u rahbarlik imidjini shakllantira oldi. G.Kol o'zining halolligi hamda barcha ishlarni ko'ngildagidek bajarishi bilan ajralib turar edi. Biz uning siyosiy portretini chizishda aynan shu holatlarga ko'p etibor beramiz, chunki bunday xususiyatga ega bo'lgan shaxslar siyosiy maydonda unchalik ham salmoqli emas. Gelmuts Kolning jamoa bilan ishlay olish qobiliyati ham taxsinga sazovor bo'lib, yutuqlarini bir o'ziniki deb emas, balki butun jamoaniki deb elon qilardi. Doim jamoa u bilan faxrlanardi.

Kol siyosiy faoliyatini Universitetda o'qib yurgan vaqtda ham davom ettirgan. U 1953-yilda XDI ning “Reynland-Pfalse”sida boshqaruv azosi bo'ldi. 1959-yilda G.Kol ona shaxri Lyudvigsxafenda partiya boshlig'i boldi. 1960-1969 yillarda esa partiyaning shaxar boshqarmasida rahbar bo'lib ishladi. Aynan shu davrlardan boshlab, unda Germaniyaning birlashtirishda, orzudan yuqoriroq tuyg'ular paydo bo'ldi. Bu ishtiyoq uni doim olg'a boshlagan va har on o'ylantirardi. albatta taqdirning o'zi ham uni siylagan. Yuqorida aytib o'tilayotgan, Gelmuts Kolning kichik siyosiy faoliyatidagi bu haqida so'zlab beradi. Mashhur nemis tarixchisi Verner Mazer aytganidek: “Kol GFR da Germaniyaning birlashtirish harakatini keltirib chiqardi. Uning vatanparvarlik hislati Berlin tomonidan ham tan olinib, nemis davlati tuzish g'oyasini faqatgina ikki xalq birdamligi asosida yaratilishini anglatadi”² Yana bir tarixchi Kristian Xakke aytgan edi: “Yangi kansler faqatgina Kosmopolet emas, tashqi siyosat uning hohish idrokida uncha aks etmasada lekin Gelmuts Koll GFR ning tashqi siyosati asoslarini his qilib, shu asosda ish olib bordi”.³ Bu fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadiki Gelmuts Kolning Germaniyaning birlashtirish rejasi bir kunda yuzaga kelmagan, unga yillar davomida tayyorgarlik ko'rilgan.

¹ Александр Бойко, член Союза журналистов Германии. Гелмут Коль – канцлер германского единства. Берлинский телеграф. 2017. 22-ном. –С.4

² Мазер В. Гельмут Коль. М., 1993. –С. 193-194

³ Hacke C. Die Außenpolitik der Bundesrepublik Deutschland. Weltmacht wider Willen? Berlin, 1997. S. 281

Uning shaxsiy hayoti ham ajoyib edi. Kol taqdirning bu siylovlaridan juda minnatdorligini qayta qayta izhor etgan. U 1960-yilda tarjimon qiz Hannelore Renner ga uylandi. Ular 1948-yiladayoq tanishgan edilar. Nikohdan ikki o'g'il dunyoga keldi. 2001-yil 5 iyulida Hannelore Renner xonim 68 yoshida allergiya kasalligidan vafot etdi. "Bu kunni hayotidagi yorug'lik so'ngani, bunday nufuzli lavozimlarga va buyuk ishlarga o'z rafiqamsiz erisha olmagan bo'lardim"- deb eslaydi Koll.

Gelmut Kol, ruhiyat va qarashlariga ko'ra, neokonservativ mafkuraga yaqin bo'lgan xristian demokratiyaning yangi konsepsiyasini ishlab chiqayotgan siyosatchilarga rahbar edi. Germaniyaning yangi konservatorlari Erxard tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy bozor xo'jaligining klassik tamoyillariga tayanar edilar. G.Koll o'z strategik maqsadlarini yaqqol anglagan holda barcha siyosiy kuchlar bilan samarali muloqot olib borishga etiborini qaratdi. Qaror qabul qilishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslikka va muammoning " pishib yetilishi" gacha kutib harakat qilish – bunday siyosiy uslub tufayli G.Kol nemis jamiyatining turli qatlamlari vakillari ishonchini qozondi hamda Germaniyaning eng mashhur va obro'li siyosatchilaridan biriga aylandi.

Gelmut Kol Parlamentda o'z mavqeyini mustahkamlash uchun Bundestagni tarqatib yuborib, navbatdagi saylovlarni o'tqazdi. Saylovlar 1983-yil 6-martda bo'lib o'tdi va yangi koalitsiyaning ishonchli g'alabasi bilan yakunlandi. XDS- 38,2% ovoz va 192 mandat, XSS-10% ovoz va 52 mandat, EDP 7% ovoz va 34 mandatga ega bo'ldi. GSDP 38,2% ovoz olib, 193 mandatga ega bo'ldi va rasman yirik fraksiyaga aylandi, ammo tasir kuchi bo'yicha Parlamentda yangi koalitsiyadan ortda qolayotgan edi

Gelmut Kol tuzulmaviy siyosatining yangi elementi xususiylashtirish dasturlarini amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Ammo G'arbning boshqa ilg'or mamlakatlaridan farqli o'laroq, nemis neokonservatorlari bu soxani ustuvor deb hisoblamadilar. Hususiylashtirishning birinchi o'n yilligi davomida G.Koll hukumati (1982-1992) byudjetdan atigi 10 milliard marka oldi holos. Shu bilan birga xalq xo'jaligida katta rol o'ynamaydigan, unchalik katta bo'lmagan korxonalar xususiylashtirildi. Kichik va o'rta biznesga nisbatan yuritilgan rag'batlantirish siyosati muhim rol o'ynadi. Bu siyosatning asosiy usuli korporativ mablag' ga cheksiz imtiyozlar beruvchi soliq-moliya islohotini amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Qishloq xo'jaligi sohasida asosiy e'tibor yirik ishlab chiqaruvchilarga qaratildi. Kol hukumati qishloq xo'jaligida band bo'lganlar sonini qisqartirishga (u 80- yillarning oxiriga kelib iqtisodiy faol aholining 4,5% igacha tushib qoldi) etibor qaratdi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari qisqartirildi. Qishloq xo'jaligi maxsulotlari xajmining o'sishi ekinlarning yangi serxosil navlarini yaratish, chorva mollari zotlarini selektsiya qilish, ekinlarni kimyoviy himoya qilish vositalarini yangilash va ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish hisobiga ta'minlandi.

Koll hukumati ichki siyosatining yutug'i ko'p jihatdan xo'jalik iqtisodiyoti doirasida o'sish fazasini boshlaganligiga bog'liq edi. Tashqi siyosatdagi ustuvor yo'nalishlar GFRning demokratiya va xalqaro huquq tizimini mustahkamlashga, "atlantik yakdillik" prinsipiga rioya qilishga, NATO azolari o'rtasida teng huquqli munosabatlarga erishishga intildi. Rus tarixchisi A.Filitov G.Kol siyosati haqida shunday degan edi: "Dastlabki davrda Germaniya hukumati a'zolari, Gelmut Kolni Adenauer yo'lidan ketadi deb o'ylashgan edi: bunda "milliy masala" ko'zda tutilgan. Ammo Gelmut Koll G'arb bilan siyosatida Sharq davlati (GDR) bilan bir xil siyosat olib borib, Germaniyani birlashtirish tomon muhim qadamlarni tashladi"¹. Rus tarixchisi haq edi G.Kol bu ishni uddaladi. Voqealar rivoji buning isboti edi. 1990- yil 12- sentyabrda "2+4" ishtirokchilari tomonidan "Germaniya masalasini uzul-kesil hal etish to'g'risida" gi shartnoma imzolandi. 1990- yilning may oyidayoq kuchga kirgan ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy, valyuta va ijtimoiy ittifoqi to'g'risidagi shartnoma imzolandi. 1990- yil 3 oktyabrda "Germaniyani birlashishi to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi. 1990- yil 20- dekabrda Ta'sis majlisida Kansler G.Kol boshchiligidagi birinchi Umumgermaniya hukumati tuzuldi.

YAQIN SHARQ: KURDISTON VA KURD MUAMMOSI

Sharipov Shohruz - Bux DU magistranti

XXI asrga kelib dunyoni milliy, diniy mojarolar qamrab olgan va buyuk davlatlarning manfaati to'qnashgan Yaqin Sharq mintaqasida tinchlikka rahna soluvchi, har daqiqada katta urushlar va qirg'inbarot urushlarga aylanib ketishi mumkin bo'lgan Kurdiston va kurd muammosi saqlanib turibdi.

¹ Филитов А.М. Германский вопрос: от раскола к объединению. М., 1993. –С. 211.